

LOGOPEDIK MASHG'ULOTLARDA FONEMATIK ESHITUVINI  
SHAKILLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH USUL  
VA YO'LLARI

**Shoaxmedova Surayyo Komilovna**

*Nizomiy nomidagi O`zMPU Logopediya kafedrasida o`qituvchisi*  
Tel: 974017577

**Bektemirova Shahzoda Bekmurod qizi**

*Nizomiy nomidagi O`zMPU 2-bosqich talabasi*  
Tel:997984508

**Annotatsiya:** Maqolada logopedik mashg'ulotlarda didaktik o'yin texnologiyalarini qo'llashning samaradorligi tahlil qilingan. Didaktik O'yin faoliyatining nutqni rivojlantirishdagi, fonematik eshituvni shakllantirishdagi va yozma nutqni to'g'rilashdagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari didaktik o'yin texnologiyalarining bolalarda motivatsiyani oshirishi, diqqat, xotira, tafakkur va nutq faolligini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** logopediya, didaktik o'yin texnologiyasi, nutq buzilishi, fonematik eshituv, motivatsiya, nutq faolliqi, interfaol metodlar.

**АННОТАЦИЯ:** В статье анализируется эффективность использования игровых технологий на логопедических занятиях. Показана роль игровой деятельности в развитии речи, формировании фонематического слуха и коррекции письменной речи. Результаты исследования подтверждают значение игровых технологий в повышении мотивации, развитии внимания, памяти, мышления и речевой активности у детей.

**Ключевые слова:** логопедия, игровые технологии, нарушение речи, фонематический слух, мотивация, речевая активность, интерактивные методы

**Abstract:** The article analyzes the effectiveness of using game technologies in speech therapy sessions. The role of play activities in speech development, the formation of phonemic hearing, and the correction of written speech is highlighted. The research results confirm the importance of game technologies in increasing children's motivation and developing their attention, memory, thinking, and speech activity.

**Keywords:** speech therapy, game technology, speech disorder, phonemic hearing, motivation, speech activity, interactive methods.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, xususan, didaktik o'yin texnologiyalarini logopedik amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Logopedik mashg'ulotlarning samaradorligi nafaqat metodik to'g'rilikka, balki bolada qiziqish va ishtirokni uyg'otish darajasiga ham bog'liqdir. Shu bois logopedik jarayonlarda didaktik o'yin faoliyatining imkoniyatlarini

o'rganish, ularning psixologik va pedagogik asoslarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yin texnologiyalarining logopedik mashg'ulotlardagi o'rni. Didaktik O'yin – bolaning tabiiy faoliyat turi bo'lib, u orqali bola atrofdagi olamni biladi, nutqiy tajriba orttiradi va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Logopedik mashg'ulotlarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish: nutq organlari faoliyatini faollashtiradi; fonematik eshituvni rivojlantiradi; so'z boyligini kengaytiradi; grammatik tuzilmani mustahkamlaydi; yozma va og'zaki nutqdagi xatolarni kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yinli yondashuv orqali bolalarda logopedik motivatsiya oshadi, nutqiy faollik ortadi, mashg'ulotlar jarayonida esa stress holati kamayadi.

Didaktik o'yin texnologiyalarining turlari va ularni qo'llash shakllari Logopedik ishda didaktik o'yinlar quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi: Fonematik didaktik o'yinlar: "Tovushni top", "Kim ortiqcha?", "Tovush zanjiri", "Qaysi tovush yo'qoldi?" Leksik o'yinlar: "Nimani eslab qolding?", "Kerakli so'zni top", "Bozor o'yini" Grammatik o'yinlar: "Gapni to'ldir", "So'zlarni tartibga sol", "Topshiriqdagi sirli so'z" Artikulyatsion o'yinlar: "Til gimnastikasi", "Og'iz musiqasi", "Hayvonlar tovushi Yozma nutq o'yinlari: "So'zdan gap tuz", "So'zni to'g'ri yoz", "Harf o'rni" O'yin texnologiyalarini interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish, masalan, "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Raqamli kartochkalar bilan ishlash" usullari orqali logopedik ta'sir kuchaytiriladi. Didaktik o'yin texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish Didaktik o'yin asosidagi mashg'ulotlar nafaqat nutqiy ko'nikmalarni, balki muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvni ham yaxshilaydi.

Didaktik o'yin texnologiyalarining psixologik-pedagogik asoslari Logopedik mashg'ulotlarda didaktik o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi psixolingvistik va neyropsixologik asosga ega. Bolaning didaktik o'yin faoliyati orqali nutqni rivojlantirish – bu tabiiy shakldagi ta'lim jarayonidir. Didaktik o'yin jarayonida bola nafaqat o'zlashtiradi, balki faol fikrlash, tahlil qilish va ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, o'yin "bolaning eng yaqin rivojlanish zonasi"ni ochib beradi, ya'ni bolaning nutqiy rivojlanish darajasini yuqoriga ko'taruvchi psixologik vositadir. Didaktik o'yinlar bolalarning quyidagi psixik jarayonlarini rivojlantiradi: Diqqatni jamlash – tovushlarni farqlash, eshituv tahlilini aniq bajarish; Xotira – so'z va tovushlarni eslab qolish, ularni takror to'g'ri qayta ishlash; Tafakkur – so'zlar o'rtasidagi ma'no bog'lanishlarini tushunish; Idrok – eshitilgan yoki ko'rilgan belgilarni tez farqlash va aniqlash. Shu bilan birga, didaktik o'yin texnologiyalarining motivatsion ahamiyati juda yuqori. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yin shaklidagi logopedik mashg'ulotlar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda 1,5–2 baravar ko'proq faol ishtirokni ta'minlaydi. Didaktik o'yin texnologiyalarining amaliy turlari 1. Didaktik o'yinlar – tovush, so'z,

gap va matn ustida ishlash uchun mo'ljallangan ("Tovushni top", "So'zlar zanjiri", "Nimani eshitding?"). 2. Harakatli o'yinlar - artikulyatsion apparat faoliyatini faollashtiradi ("Til sporti", "Bo'rilar va quyonlar"). 3. Raqamli o'yin texnologiyalari - logopedik dasturlar ("Pishem pravil'no", "Bolalar logopediyasi", "So'z o'rganamiz") orqali nutqni tahlil qilish va mustahkamlash. 4. Sensor o'yinlar - qum, suv, multisensor materiallar bilan ishlash (masalan, "Qumdagi tovushlar", "Harflar izlab top") orqali nutqni sezgi asosida faollashtirish.

Ijodiy didaktik o'yinlar - ertak yaratish, rasm asosida hikoya tuzish, dramatisatsiya qilish orqali bog'langan nutqni rivojlantirish. Ushbu didaktik o'yin turlari logopedik mashg'ulotlarning har bir bosqichida - motivatsion tayyorlov, asosiy faoliyat va yakuniy mustahkamlash qismida qo'llaniladi. Innovatsion yondashuvlar So'nggi yillarda logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosidagi didaktik o'yin metodlari keng joriy etilmoqda. "Raqamli logopediya" loyihasi doirasida mobil ilovalar, interfaol taxtalar, sensorli ekranli mashqlar orqali tovush, so'z va gap tahlili o'tkaziladi; Virtual logopedik o'yinlar (masalan, "Nutq sehgari", "To'g'ri so'z ayt") bolalarda tovush va talaffuz ko'nikmalarini mustahkamlashda yuqori natija beradi; Gamifikatsiya elementi asosida mashg'ulotlarni baholash tizimi didaktik o'yin ballari orqali amalga oshiriladi, bu esa bolalarda raqobat va o'zini baholash ko'nikmasini kuchaytiradi. AKT asosidagi didaktik o'yinlar, ayniqsa, dislaliya, disgrafiya, fonematik eshituv buzilishlari va bog'langan nutqning rivojlanmaganligi holatlarida samarali bo'lib, ular logopedik ta'sirni individuallashtirish imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar 1. Didaktik o'yin texnologiyalarini logopedik mashg'ulot rejasiga sistematik tarzda kiritish; 2. Didaktik o'yinlar mazmunini bolaning yosh va nutqiy darajasiga moslashtirish; 3. Har bir o'yin natijasini refleksiya bosqichi orqali tahlil qilish (bola nimalarni o'rgandi, qanday so'zlarni to'g'ri talaffuz qildi); 4. Didaktik o'yinlar orqali bolaning ijtimoiy-emotsional holatini yaxshilash, stressni kamaytirish; 5. Har bir mashg'ulotda vizual, eshituv va kinestetik komponentlarni uyg'un qo'llash.

Xulosa didaktik o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish logopedik ishning psixologik, pedagogik va terapevtik ta'sirini kuchaytiradi. Ular nafaqat nutqdagi nuqsonlarni tuzatadi, balki bolaning ijodiy fikrlash, diqqatni jamlash va o'ziga ishonch hissini rivojlantiradi. Didaktik o'yin - bu bolaning shaxsiy rivojlanish vositasi bo'lib, logopedik jarayonda o'yin texnologiyalaridan foydalanish nutqni tuzatish jarayonini tabiiy, ijobiy va samarali holatga keltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. - B.70-71.
2. Z.M.Ahmedova, M.Yu.Ayupova, M.P.Xamidova Logopedik uyin. Toshkent-2013
3. Л.С.Выготский, Педагогическая психология .М.Педагогика-Пресс 1996.
4. Е.Н.Винарская, Раннее речевое развитие ребенка и проблемы дефектологии: Периодика раннего развития . Эмоциональные предросылки освоения языка - М: Просвещение 1987.
5. О.Е.Грибова, Технология организации логопедического обследования.Методическое пособие.- М: Айрис-пресс,2005.
6. Р.Е.Левина, Воспитание правильной речи у детей-М: Издательство Академии педагогических наук 1958.
7. L.R.Muminova, Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va maktabga tayyorlov guruh bolalari nutkini xalk uyinlari asosida rivojlantirish texnologiyasi. T: Fan va texnologiya 2014 .
8. Г.В.Чиркина, Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. М: 2008.
9. С.Н.Шаховская, Логопедия. Москва-Владос 2003
10. CHARACTERISTICS OF THE SPEECH THERAPIST'S ACTIVITY IN THE GENERAL EDUCATION SCHOOL IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION SK Shoakhmedova The American Journal of Social Science and Education Innovations 4 (11), 17-22 16 2022
11. USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN WORK WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS  
SK Shoakhmedova - The American Journal of Interdisciplinary Innovations ..., 2022
12. GOALS AND TASKS OF ORGANIZING INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS  
SK Shoakhmedova American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 3 (10), 60-66
13. NUTQI RIVOJLANMAGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN ASOSIDA SO'Z BOYLIGINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA KORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING MAZMUNI, USULLARI VA TASHKIL ETILISHI



---

S Shoaxmedova, N Arifxanova - Инновационные исследования в науке, 2024  
14.Methods Of Developing The Vocabulary Of Children With Underdeveloped  
Speech And Testing Methodology  
S Shoakhmedova - American Journal of Advanced Scientific Research, 2024